Наргиза Мусулманова

# ILMIY VA IJODIY ISH YOZISH ASOSLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MUSULMANOVA N.R.

# ILMIY VA IJODIY ISH YOZISH ASOSLARI

O‘QUV QO‘LLANMA

60111600 - O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi yo‘nalishi talabalari uchun

Toshkent – 2021

**Musulmanova N.R.**
**Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2021, 184 bet**

Mazkur o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU rektori tomonidan tasdiqlangan O'zbek tili fakulteti 60111600 – o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi o'quv rejasidagi «Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari» fani uchun namunaviy fan dasturi asosida tayyorlanib, talabalarning ilmiy-ijodiy ish bilan shug'ullanish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida yozildi. O'quv qo'llanmada berilgan barcha mavzular talabalarning bakalavr ta'limida referat, kurs ishi, BMI, maqola, esse, annotatsiya kabi ilmiy matnlarni tayyorlash, ma'ruzalarga tayyorgarlik ko'rish, mustaqil holda ilmiy va metodik maqolalar bilan tanishib, ularni tahlil qilish va annotatsiyalar yozish, dissertatsiyalar haqida tasavvurga ega bo'lish, taqdimotlar tayyorlash kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quv qo'llanmada ayrim mavzular rus tilida berilgan bo'lib, bundan maqsad, yo'nalishda ta'lim oladigan rusiyzabon talabalarga fan haqidagi umumiy tushunchalarni tasavvur qilishda yordam berishdan iborat. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, foydalanishda qulaylik yaratish maqsadida ko'plab foydalanilgan adabiyotlar va manbalarning elektron manzillari berildi.

Qo'llanma O'zbek tili fakulteti talabalari va ilmiy-ijodiy ish bilan qiziquvchi magistrant, tadqiqotchi, o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

**Ilmiy muharrir:**
**S.X.Muhamedova – filologiya fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar:**
**B.M.Baxriddinova – filologiya fanlari bo'yicha DSc, dotsent**
**M.B.Shodmonova – pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

## KIRISH

Ilm-fan taraqqiy etar ekan, unga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyat ham ortib boradi. Ijod qilish, ilm bilan shug'ullanish, yangiliklarni kashf qilish, ilmiy muammolar va ularning yechimlarini topish, tafakkurni o'stirish, yoshlarni ilm bilan shug'ullanishga da'vat etish – bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida tahsil oladigan talabalarning barchasi o'z yo'nalishi va mutaxassisligidan kelib chiqib, o'qitiladigan barcha fanlardan topshiriqlar, xususan, referat, kurs ishi, tezis, kichik ilmiy va metodik maqolalar kabi ilmiy matnlar bilan ishlashga majbur bo'ladilar. Ularda bu ko'nikmalarni shakllantirish esa, Oliy o'quv yurtining professor-o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Referat yoki kurs ishi haqida tushunchaga ega bo'lmagan talaba uni mukammal bajara olmaydi. Natijada, ko'r-ko'rona ko'chirib tayyorlangan ish talabani baholashda qiyinchiliklarga olib keladi. Tajribamiz shuni ko'rsatadi-ki, yillar davomida shakllanadigan ilmiy ijodkorlikni biz talabalardan zudlik bilan rivojlanishini talab qilamiz. Chunki, 1-kursdan boshlab ulardan referatlar, taqdimotlar, esse, annotatsiya, konspekt va shunga o'xshash matnlarni yaratishni, yangi zamonaviy usullarda ularni taqdim etishni talab qila boshlaymiz. Tabiiy-ki, 1-kurs talabasi bunga hali tayyor bo'lmaydi. Aynan shu maqsadda biz «O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili» ta'limi yo'nalishi talabalariga yordam tariqasida ularning o'quv rejasiga «Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari» fanini kiritdik va ushbu o'quv qo'llanmani tayyorladik.

Talabalarga ilmiy matnlar yaratishni o'rgatish bilan birga, tayyor ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalarni o'qib o'rganish va tahlil qilish, adabiyotlarni tartiblash, elektron saytlardan mavzu uchun zarur bo'ladigan materiallarni izlab topish hamda ish jarayonida foydalanish, adabiyotlar ro'yxati va havolalar (snoska)ni shakllantirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishni ham ushbu qo'llanmamizning bir vazifasi sifatida e'tirof etdik.

Turli xil ma'ruzalarni tayyorlash, ularni turli usullarda taqdim qilish, kompyuterda taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish, tayyor ishlarni himoya qilish kabilarni o'rgatishni ham o'z zimmamizga oldik.

Oliy ta'limdan keyingi ilmiy jarayonlar haqida talabalarda tasavvur o'yg'otish, dissertatsiyalarning nima ekanligi, qanday tayyorlanishi, himoya qilinishi va ularning ilm-fan uchun ahamiyati haqidagi fikrlarimizni yo'nalishimizda olib boriladigan ta'lim tilidan kelib chiqib, rus va o'zbek tillarida berishga qaror qildik.

## MUNDARIJA


KIRISH ........ 3
1-mavzu. «ILMIY VA IJODIY ISH YOZISH ASOSLARI» FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI ........ 4
2- mavzu. ILMIY ADABIYOTLARNI MUTOLAA QILISH ........ 7
3- mavzu. ILMIY USLUB VA ILMIY MATN ........ 13
4-mavzu. MAVZUNING ILMIY-METODIK ADABIYOTINI O‘RGANISH ........ 16
5-mavzu. ILMIY VA IJODIY JARAYONDA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH ........ 22
6-mavzu. ILMIY MATNNING TARKIBIY QISMLARI ........ 27
7-mavzu. REFERAT – AXBOROTLARNI YOZMA SHAKLDA YETKAZISHNING USULI SIFATIDA ........ 31
8-mavzu. ILMIY MATN TURLARI ........ 36
9-mavzu. ESSE – IJOD MAHSULI ........ 41
10-mavzu. AXBOROTNING OG‘ZAKI SHAKLDA YETKAZILISHI. TA’LIMIY MA’RUZALAR ........ 46
11-mavzu. MA’RUZALARGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA TASHKIL QILISH ........ 52
12-mavzu. AXBOROTNI YETKAZISHDA TAQDIMOTLAR ........ 55
13-mavzu. ILMIY TADQIQOTLARNING TURLARI ........ 59
14-mavzu. ILMIY TADQIQOT TURLARINI OLIB BORISHNING ASOSIY USULLARI ........ 64
15-mavzu. MUAMMONI ANIQLASH, UNI HAL ETISH, TAHLIL QILISH ........ 68
16- mavzu. MUAMMONI ANIQLASH, O‘RGANISH VA YECHIMI BO‘YICHA ILMIY GEPOTEZANI SHAKLLANTIRISH ........ 71
17-mavzu. TASNIFLASH VA ILMIY TADQIQOTNING ASOSIY BOSQICHLARI ........ 75
18-mavzu. ILMIY TADQIQOTLAR MAVZUINI TANLASH VA BAHOLASH ........ 77





19-mavzu. OLIY TA’LIMDA KURS ISHI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ........ 80
20-mavzu. KURS ISHI TARKIBI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ........ 84
21-mavzu. KURS ISHI BO‘YICHA QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR ........ 87
22-mavzu. BITIRUV MALAKAVIY ISHI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT ........ 91
23-mavzu. BITIRUV MALAKAVIY ISHINI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISH ........ 95
24-mavzu. BMINI YAKUNLASH, HIMOYA QILISH VA BAHOLASH ........ 100
25-mavzu. O‘ZBEKISTONDA MAGISTRATURA VA MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR ........ 105
26-mavzu. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI HIMOYA QILISH VA BAHOLASH TARTIBI ........ 110
27-mavzu. ILMIY MATNLARNING EKSTRALINGVISTIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR ........ 113
28-mavzu. ILMIY IJOD JARAYONI: ASOSIY ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR ........ 120
29-тема. ПОЗНАНИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА – ОСНОВА УСПЕШНОЙ ПОДГОТОВКИ СОИСКАТЕЛЯ[33] ........ 126
30-тема. ПОЗНАНИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТЕЙ НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА – ОСНОВА УСПЕШНОЙ ПОДГОТОВКИ СОИСКАТЕЛЯ (продолжение) ........ 132
MAVZULAR YUZASIDAN SAVOLLAR ........ 140
MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR ........ 147
MAVZULAR BO‘YICHA GLOSSARIY ........ 170
ILOVALAR ........ 174


[33] Ushbu mavzu yo‘nalish ta'limidan kelib chiqib, rusizabon talabalar uchun umumlashtiruvchi mavzu hisoblanadi.